



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Nazariya va metodologiya
Theory and methodology
Теория и методология



UDK: 331.101.262

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.2>

KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INSON KAPITALINING ROLI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Ochilov Akram Odilovich
Xasanova Aziza Ikromovna*

РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

*Очилов Акрам Одилевич
Хасанова Азиза Икромовна*

THE ROLE OF HUMAN CAPITAL IN IMPROVING ENTERPRISE EFFICIENCY: MODERN APPROACHES

*Ochilov Akram
Xasanova Aziza*

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqola korxona samaradorligini oshirishda inson kapitalining ahamiyatini tahlil qiladi. Inson kapitali xodimlarning bilim, malaka va tajribasidan iborat bo'lib, u korxona raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada zamonaviy yondashuvlar, jumladan, xodimlarni tayyorlash va rivojlantirish, motivatsiya tizimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali korxona samaradorligini oshirish mexanizmlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, korxona samaradorligi, xodimlarni rivojlantirish, motivatsiya tizimi, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируется роль человеческого капитала в повышении эффективности предприятия. Человеческий капитал включает знания, навыки и опыт сотрудников и является ключевым фактором повышения конкурентоспособности и экономической эффективности компании. В статье рассматриваются современные подходы к развитию человеческого капитала, включая обучение и развитие сотрудников, совершенствование системы мотивации и внедрение инновационных технологий для повышения эффективности предприятия.

Ключевые слова: человеческий капитал, эффективность предприятия, развитие сотрудников, система мотивации, инновационные технологии.

Abstract: This article examines the role of human capital in enhancing enterprise efficiency. Human capital, consisting of employees' knowledge, skills, and experience, is a crucial factor in increasing competitiveness and ensuring economic effectiveness. The study explores modern approaches to human capital development, including employee training and development, improving motivation systems, and implementing innovative technologies to enhance enterprise performance.

Keywords: human capital, enterprise efficiency, employee development, motivation system, innovative technologies.

■ KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobatbardoshlik sharoitida korxona samaradorligini oshirish nafaqat moliyaviy va texnologik resurslarga, balki inson kapitaliga ham bevosita bog'liq. Inson kapitali – bu xodimlarning bilim, malaka, tajriba, kreativlik va innovatsion ko'nikmalaridan iborat resurs bo'lib, u

korxona raqobatbardoshligini ta'minlash va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi [1]. Zamonaviy korxonalar uchun inson kapitalini rivojlantirish, xodimlarni samarali tayyorlash va rag'batlantirish tizimlarini yaratish ayniqsa muhimdir. Chunki bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida xodimlarning malakasi va kompetensiyalari korxona



innovatsion salohiyati va natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir [2].

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar - raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta'lim va treninglar, motivatsiya tizimlarini takomillashtirish – korxonalarda inson kapitalining samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, korxona samaradorligini oshirishda inson kapitalining roli o'rganilishi va unga zamonaviy menejment yondashuvlarini tatbiq etish dolzarb ilmiy va amaliy masala sifatida qaratiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi – korxona samaradorligini oshirishda inson kapitalining ahamiyatini aniqlash va zamonaviy yondashuvlar orqali uning samaradorligini oshirish mexanizmlarini tadqiq etishdir.

■ ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali va korxona samaradorligini oshirish masalasi iqtisodiyot va menejment fanlarida keng o'rganilgan mavzudur. Gary Becker (1993) inson kapitali nazariyasini ishlab chiqib, xodimlarning bilim, malaka va tajribasi korxona samaradorligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ta'kidlagan. Becker nazariyasi bo'yicha, inson kapitaliga sarmoya kiritish – bu korxona va jamiyat darajasida uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiruvchi investitsiya hisoblanadi. Theodore Schultz (1961) esa inson kapitalini iqtisodiy rivojlanish manbai sifatida tahlil qilib, xodimlarning bilim va malakasini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash mumkinligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar (World Bank, 2020) raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim va treninglar, xodimlarni

rag'batlantirish tizimlari korxonalarda inson kapitalining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, xodimlarni rivojlantirish va motivatsiya qilish tizimlari korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Armstrong va Taylor (2020) o'z tadqiqotlarida xodimlarni rag'batlantirish, malakasini oshirish va ish sharoitlarini yaxshilash korxona natijadorligini sezilarli darajada oshirishini ta'kidlaydi. Zamonaviy menejment amaliyotida inson kapitali bilan ishlash – strategik vazifa bo'lib, bu nafaqat ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, balki innovatsion salohiyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi [2].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar inson kapitalining korxona samaradorligini oshirishdagi rolini ilmiy va amaliy nuqtai nazardan batafsil yoritadi. Shu asosda, zamonaviy yondashuvlar – innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni doimiy rivojlantirish va motivatsiya tizimini takomillashtirish – samaradorlikni oshirishda asosiy vositalar sifatida ko'riladi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – korxona samaradorligini oshirishda inson kapitalining rolini aniqlash va zamonaviy menejment yondashuvlari orqali uning samaradorligini oshirish mexanizmlarini o'rganishdir.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda inson kapitalini rivojlantirishda bir qator muhim omillarga e'tibor qaratiladi.

1-jadval.

Inson kapitali shakllanishining tasnifiy va tavsifiy belgilari [4]

Tasniflash mezonlari	Inson kapitali turi	Ilmiy tavsif
Joriy etish xarakteriga ko'ra	Umumiy inson kapitali	Turli iqtisodiy faoliyat sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan universal bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmui bo'lib, u mehnat bozorida yuqori moslashuvchanlikni ta'minlaydi.
	Maxsus inson kapitali	Muayyan kasb, tarmoq yoki tashkilot doirasida samarali foydalaniladigan, yuqori darajada ixtisoslashgan bilim va malakalarni ifodalaydi.
Amalga oshirish shakliga ko'ra	Jonli inson kapitali	Insonning o'zida mujassam bo'lgan salomatlik, bilim, tajriba, intellektual va ijodiy qobiliyatlar yig'indisini anglatadi.
	Jonsiz inson kapitali	Inson kapitalini rivojlantirish va undan foydalanishga xizmat qiluvchi moddiy va nomoddiy resurslar (texnologiyalar, axborot, bilim tashuvchilar).
	Institusional inson kapitali	Inson kapitalini shakllantirish va takror ishlab chiqarishni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyati natijasida yuzaga keladigan kapital shakli.
Qayta ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishiga ko'ra	Iste'mol kapitali	Insonning hayot sifati va ijtimoiy farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi salomatlik, madaniyat va ma'naviy resurslar majmui.
	Ishlab chiqarish kapitali	Mehnat faoliyatida bevosita ishtirok etuvchi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi bilim va ko'nikmalar yig'indisi.
	Intellektual kapital	Ilmiy bilimlar, innovatsiyalar va ijodiy faoliyat orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi inson kapitali shakli.
Jamg'arilish (yig'ilish) shakliga ko'ra	Sog'liqni saqlash kapitali	Insonning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash orqali mehnat unumdorligini oshiruvchi kapital shakli.
	Mehnat kapitali	Kasbiy bilimlar, amaliy tajriba va mehnat malakalarining jamlanmasi.
	Madaniy-axloqiy kapital	Ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy xulq-atvor orqali shakllanadigan kapital.
	Intellektual kapital	Bilimlar, ilmiy salohiyat va innovatsion tafakkur asosida shakllanadigan inson kapitali.
	Tashkiliy va tadbirkorlik kapitali	Boshqaruv qobiliyati, tashabbuskorlik va riskni qabul qilishga asoslangan iqtisodiy faoliyat salohiyati.



1-jadvalda inson kapitali shakllanishining tasnifiy va tavsifiy belgilari tizimli ravishda yoritib berilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, inson kapitalining shakllanishi turli mezonlar asosida amalga oshib, ularning har biri iqtisodiy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, inson kapitalining joriy etish xarakteri, amalga oshirish shakli, qayta ishlab chiqarish jarayonidagi ishtiroki hamda jamg'arilish shakllari uning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq ochib beradi. Ushbu tasnif inson kapitalini samarali boshqarish, uni rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish hamda mehnat unumdorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Global rivojlanish va texnogen taraqqiyot to'liqsimon jarayonni hosil qilib, muayyan soha rivojiga baho berishda indikatorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Indikator atamasi lotincha **"indico"** – **ko'rsataman, aniqlayman** degan ma'nolarni anglatadi. Bu ma'noda atama biror jarayonning kechishi yoki kuzatilayotgan obyekt holatining idrok etish qulayligini ta'minlovchi asbob, qurilma, element mazmunida qo'llaniladi. Turli soha, tarmoqlarning rivojlanish ko'rsatkichlari, ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan masalalar echimi bir yoki bir necha indikatorlar orqali aniqlanadi va tegishli masalani baholash uchun dalillar bazasini taqdim etadi. Indikatorlar quyidagi uch toifaga bo'linadi:

2-jadval.

Davlat boshqaruvi samaradorligi va institutlar faoliyati sifatini baholash indikatorlarning tasnifi va tavsifi [5]

Indikatorlar toifasi	Asosiy mazmuni	Ma'lumot manbalari va qo'llanilish sohasi
Miqdoriy indikatorlar	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni raqamlar orqali ifodalaydigan ko'rsatkichlar bo'lib, aniq o'lchash va solishtirish imkonini beradi	Rasmiy statistik ma'lumotlar, uy xo'jaliklari tadqiqotlari, miqdoriy so'rovlar, xususiy internet kompaniyalari tomonidan to'plangan ma'lumotlar, ishonchli parametrlar va bilvosita ko'rsatkichlar asosidagi hisob-kitoblar
Institusional indikatorlar	Davlat va jamoat institutlarining faoliyati, ularning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini baholashga xizmat qiladi	Konstitusiyaviy tamoyillar, ijro etuvchi idoralar faoliyatini tashkil etish va tartibga solish jarayonlari, normativ-huquqiy hujjatlar
Sifat indikatorlari	Davlat organlari va institutlar faoliyatining samaradorligi va sifat darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar	Xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy jamoatchilik tadqiqotlari, OAV manbalari, professional tadqiqotlar, ekspert baholari, mutaxassislar bilan suhbatlar va respondentlar fikrlari asosida shakllantiriladi

2-jadvalda davlat boshqaruvi samaradorligi va institusional rivojlanish darajasini baholashda qo'llaniladigan indikatorlar tasnifi tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, miqdoriy indikatorlar rasmiy statistik ma'lumotlar va empirik tadqiqotlar asosida boshqaruv jarayonlarining o'lchab bo'ladigan jihatlarini tavsiflaydi. Institusional indikatorlar esa huquqiy-me'yoriy asoslar hamda ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini baholashga xizmat qiladi. Sifat indikatorlari orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligi, shaffofligi va jamoatchilik ishonchi darajasi aniqlanadi. Mazkur indikatorlar majmui davlat siyosatini takomillashtirish, boshqaruv sifatini oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu indikator va ko'rsatkichlar ta'limning shaxs, jamiyat va iqtisodiyot uchun yakuniy ta'sirini o'lchovini anglatadi.

O'quvchilar maktab davri yoki talabalik davrida erishgan ta'lim sohasidagi yutuqlari, egallagan bilim va ko'nikmalari, ularning ijtimoiy adaptatsiyasi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradi. Aholining savodxonlik darajasini muttasil oshirib borish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va mehnat unumdorligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganiladi. Xususan, yakuniy natijalar ko'rsatkichlari sifatida iqtisodiy rivojlanish darajasi va

mehnat unumdorligi (Gini index) (Jini) koeffitsiyentidan foydalanamiz. Bu ko'rsatkichlar qiymatiga boshqa omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Lekin iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish ta'lim tizimining asosiy vazifalari bo'lib, ta'lim va iqtisod o'rtasidagi bog'liqlikni doimiy monitoring qilib borishni shartlaydi.

Inson uchun ta'limning eng muhim natijasi maktabdan keyingi hayotga moslashish – mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishi yoki ta'limning keyingi darajasiga o'tishdan iborat. Ushbu o'tish jarayonda muvaffaqiyatini baholash uchun "ishlamaydigan va o'qimaydigan yoshlar nisbati" ko'rsatkichidan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkich G.Graysi va S.Kellining London universitetida o'tkazgan "Maktabgacha, boshlang'ich va o'rta darajadagi samarali ta'lim" mavzusida kagortali tadqiqotlarda ta'lim tizimidan tashqarida qolgan bitiruvchilarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi integratsiya va adaptatsiya muammolari aniqlandi. Empirik tadqiqot natijalariga muvofiq OTMda o'qishni davom etmaydigan va kasb-hunar bilan shug'ullanmaydigan yoshlar muammosi maktabdagi sifatsiz boshlang'ich ta'lim muammosiga taqaladi. Ushbu masalalardagi aloqadorlik ta'lim sifatining yoshlardagi mustaqil hayotga moslashuvchanlik va faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.



Mamlakatimizda Uchinchi renesans poydevorini qurish, aholi turmush darajasini yaxshilash, xalqimiz farovonligini ta'minlash bir so'z bilan aytganda xalqni rozi qilish, inson qadrini ulug'lashga asoslangan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida ko'zlangan ezgu maqsadlarga erishishda iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy sohalarida taraqqiy etishida avvalambor inson omili hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqsadlarga muvofiq inson kapitalini rivojlantirishda sog'liqni saqlash, sifatli ta'lim-tarbiya, munosib yashash va mehnat sharoitlarini yaratib berish kun tartibidagi dolzarb vazifalarga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganlaridek: "Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash – barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli Farmonida mamlakatimizda 2030 yilga kelib "PISA" reytingi bo'yicha jahonning 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat.

18 asrning ikkinchi yarmida Iqtisodiy Hamkorlik Taraqqiyoti Tashkiloti davlatlari tomonidan turli ta'lim tizimlarining statistik ma'lumotlarini yuritish va tahlil qilish ishlari boshlab yuborildi. Mazkur statistikaning yuritishdan maqsad uzoq kelajakni o'ylagan holda sanoat davlatlarning ta'limini rejalashtirish orqali malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashdan iborat bo'lgan. Ushbu statistikasi yuritish iqtisodiy nuqtai nazardan qiziqishdan tashqari, ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, ta'lim olishda teng huquqlilik masalalarini ham tahlil qilish uchun kerakli statistik ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi indikator sifatida "PISA" – o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot, TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring kabi qator xalqaro dasturlarni e'tirof etish mumkin. Mazkur xalqaro dastur va indikatorlar rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish, inson kapitalini yanada rivojlantirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

PISA (inglizcha Program for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonlik darajasi (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur hisoblanadi. Bu dastur har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. PISA tadqiqotlarida o'quvchi dasturni o'zlashtirganligi emas, balki bilim va ko'nikmalarni hayotda qay darajada qo'llay olishi baholanadi. PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi yillik yalpi ichki mahsulotning bir foizga <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

oshishini ta'minlaydi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyoti tashkiloti tomonidan tashkil etilgan xalqaro tadqiqotlar, jumladan PISA testlarini o'tkazishdan maqsad xuddi shu kabi o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarida mustaqil hayotda asqotadigan ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Reallikni ochiq-oydin anglash, voqea-hodisalarni tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish, kommunikabellik va ochiqlik ko'nikmalari ta'lim tizimining sifat darajasidan darak beradi.

Hozirda barcha sohalaridagi rivojlanish ko'rsatkichlarining ko'plab indikatorlari mavjud. Jumladan, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy rivojlanish indikatorlarini bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Ijtimoiy rivojlanish indikatorlari ichida ta'lim sohasida inson kapitalini o'sib borishiga xizmat qiluvchi indikatorlar alohida ahamiyatlidir.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish masalalari ilgari suradi. O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanishi ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy va gumanitar texnologiyalarga asoslangan bo'ladi. So'nggi ikki-uch yil ichida milliy boylikning ajralmas qismi bo'lgan inson kapitalini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Bularga ijtimoiy himoya, inson salomatligi, oilaviy munosabatlar yaxshilanishi, tuman muassasalari faoliyati yaxshilanishi va ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar kiradi. Inson kapitalini to'plash tarbiyaga sarmoya kiritishdan boshlanadi, ya'ni oilada ota-ona farzandining tug'ilishi bilan unga mablag' qo'yishi zarur. Farzandlarni tarbiyalash juda ko'p mablag' talab qiladi, ammo ayni paytda bolalar ota-onalarning qoniqish manbaidir. Ya'ni, hayot jarayonida odam o'zini harakatga keltiradi, biron bir "foydali" ish bilan shug'ullanadi va o'zlarining inson kapitalining tarkibiy qismlaridan - ta'lim, sog'liqni saqlash, bo'sh vaqt, tarbiyani o'zaro bir-birini mustahkamlab turadigan erkin energiyani "ajratib" oladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ochilov Akram Odilovich – Qarshi davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor / Очиллов Акрам Одилович – заведующий кафедрой «Экономика» Каршинского государственного университета, доктор экономических наук, профессор / Ochilov Akram Odilovich – Head of the Department of Economics at Karshi State University, Doctor of Economics, Professor
E-mail: akram.oo@mail.ru
ORCID ID: 0009-0004-9254-188X

2. Xasanova Aziza Ikromovna – Xalqaro Innovatsion Universiteti "Iqtisodiyot va moliya" kafedrasi o'qituvchisi / Хасанова Азиза Икромовна –

Qarshi davlat texnika universiteti



преподаватель кафедры «Экономика и финансы»
Международного инновационного университета /
Khasanova Aziza Ikromovna – Lecturer at the
Department of Economics and Finance, International
Innovation University

azizaxasanova65@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-1297-3377>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son
2. Becker, G. S. Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education (3rd ed.). The University of Chicago Press, 1993.
3. Schultz, T.W. (1961) Investment in Human Capital. American Economic Review, 51, 1-17.
4. World Bank. The human capital project: Update. World Bank, 2020.
5. Drucker, P. The Practice of Management. Butterworth-Heinemann, Cambridge, 2007.
6. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тадқиқотлар ва ислохотлар маркази. Инсон капитали ва рақобатбардошлик ҳисоботи. — Тошкент, 2023.
7. Абдурахмонов Қ. Х. Инсон капитали ва уни бошқариш. — Тошкент: Иқтисодиёт, 2022.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz